

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORPORATIV KREDITLASHDA SUN’IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Yuzbayeva Shaxsanam Ma’rufovna**

**Milliy Texnologik Tadqiqotlar Universiteti "MISIS" Olmaliq filiali**

**Moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21671584>

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda O'zbekiston bank tizimida korporativ kreditlashda Big Data va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo'llash istiqbollari tadqiq etilgan. RegTech (Regulatory Technology) va SupTech (Supervisory Technology) konsepsiyalari nazariy jihatdan tahlil qilinib, xalqaro tajriba umumlashtirilgan. O'zbekiston Markaziy bankining joriy nazorat tizimi baholanib, Big Data va SI asosida monitoring mexanizmlarini joriy etishning ilmiy-amaliy asoslari ishlab chiqilgan. SupTech platformasining konseptual arxitekturasini taklif etilgan va uni bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Big Data, sun'iy intellekt, bank nazoroti, RegTech, SupTech, Markaziy bank, raqamli transformatsiya, moliyaviy barqarorlik, prudensial nazorat.

Jahon moliya tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank nazorati oldiga tubdan yangi vazifalarni qo'yimoqda. An'anaviy nazorat usullari -davriy hisobotlarni qo'lda tekshirish, makro ko'rsatkichlarni retrospektiv tahlil qilish zamonaviy moliyaviy bozorlarning murakkabligi va tezkorligi sharoitida yetarli samaradorlikni ta'minlay olmayapti. Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)ning 2025-yil avgust oyida e'lon qilingan O'zbekiston bo'yicha Financial Sector Assessment Program (FSAP), ya'ni Moliya sektori nazorati dasturi hisobotiga ko'ra, mamlakatda 36 ta tijorat banki faoliyat yuritib, ulardan 9 tasi davlat ishtirokidagi bo'lib, bank sektori aktivlari YalMning 55 foizini tashkil etgan. Bunday keng ko'lamli bank tizimini samarali nazorat qilish uchun zamonaviy texnologik yechimlar zarur.

So'nggi yillarda xalqaro amaliyotda RegTech va SupTech tushunchalari keng tarqalib, markaziy banklar Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalarini nazorat faoliyatiga faol joriy etmoqda. Bazel bank nazorati qo'mitasi (Basel Committee on Banking Supervision - BCBS), Moliyaviy barqarorlik kengashi (Financial Stability Board - FSB) va Xalqaro hisob-kitoblar bankining innovatsion markazi (BIS Innovation Hub) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, SupTech yechimlari nazoratning aniqligini, tezkorligini va oldindan bashoratlash qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

O'zbekiston Markaziy bankining statistik byulletenlariga ko'ra, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2018-yil oxirida taxminan 4,45 million nafar bo'lgan bo'lsa, 2025-yil oxiriga kelib 82,9 million nafarga yetdi, ya'ni 19 baravardan ortiq o'sdi<sup>3</sup>. Bank plastik kartalari soni ham shu davr mobaynida 19,2 milliondan 68,3 millionga ko'payib, 3,6 baravar o'sishni namoyish etdi. Biroq, bank nazorati sohasida Big Data va SI texnologiyalaridan foydalanish darajasi hali hamon past darajada qolmoqda.

O'zbekistonda raqamli transformatsiyaning huquqiy asoslari. O'zbekiston bank tizimining raqamli transformatsiyasi mustahkam huquqiy bazaga tayanadi. 2019-yilda qabul qilingan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonun to'lov xizmatlarini ko'rsatuvchilar uchun yagona huquqiy asos yaratib, iste'molchilarni himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-martdagi PF-5953-son Farmoni "Bank tizimini

isloh qilish strategiyasi to'g'risida" davlat ishtirokidagi banklarni bosqichma-bosqich xususiylashtirish, korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish va raqobat muhitini kuchaytirishni ko'zda tutib, sektorning zamonaviy talablarga moslashuvini ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'ldi.

2020-yilda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi iqtisodiyot va davlat boshqaruvining barcha sohalarini raqamlashtirishga yo'naltirilgan kompleks choralarni o'z ichiga oldi. Prezidentning 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarorida sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish belgilandi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar bank nazorati sohasida SupTech yechimlarini joriy etish uchun zaruriy huquqiy bazani shakllantirgan.

Tadqiqotning maqsadi - O'zbekiston bank nazorati tizimida Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, xalqaro tajribani umumlashtirish hamda SupTech platformasining konseptual arxitekturasini taklif etishdan iborat.

Hozirgi kunda O'zbekiston Markaziy banki bank nazorati funktsiyalarini asosan an'anaviy usullarda amalga oshirmoqda. Tijorat banklari taqdim etadigan davriy hisobotlar Markaziy bank mutaxassisleri tomonidan qo'lda qayta ishlanib, prudensial normativlarga muvofiqligi tekshiriladi. 2023-yil dekabr holatiga XV FSAP hisobotida qayd etilgan muammoli kreditlar (NPL) darajasi 4,2 foizni, MHXS 9-son bo'yicha 3-bosqich ko'rsatkichi esa 7,8 foizni tashkil etgan<sup>18</sup>. Biroq 2025-yil oxiriga kelib vaziyat ijobiy tomonga o'zgardi: Markaziy bankning statistik byulleteniga ko'ra, 2025-yil dekabr holatiga (01.01.2026) NPL darajasi 3,0 foizga tushdi, bunda davlat ishtirokidagi banklarda bu ko'rsatkich 3,2 foizni, boshqa banklarda esa 2,6 foizni tashkil etdi. Shunga qaramay, aktivlar sifatini real vaqt rejimida uzluksiz monitoring qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston sharoitida SupTech platformasini joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Eng dolzarbi - malakali mutaxassislar yetishmasligi. Bu muammoni hal qilish uchun Markaziy bank tarkibida maxsus SupTech laboratoriyasini tashkil etish va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlash dasturini ishlab chiqishni taklif etamiz.

Markaziy bankning raqamli infratuzilmasida so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar ro'y bergan. Banklararo to'lov tizimi, Hisob-kitob kliring tizimi va Tezkor to'lovlar tizimi zamonaviy texnologiyalar asosida faoliyat yuritmoqda.

Biroq nazoratning o'zida Big Data va SI texnologiyalaridan foydalanish darajasi past bo'lib qolmoqda. Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridan yig'iladigan ma'lumotlar asosan tuzilgan formatda bo'lib, tuzilmagan ma'lumotlar - bank mijozlarining shikoyatlari, ijtimoiy tarmoqlar ma'lumotlari, ommaviy axborot vositalari tahlil qilinmaydi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqilgan: birinchidan, Markaziy bank tarkibida maxsus SupTech laboratoriyasini tashkil etish va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda data science yo'nalishida kadrlar tayyorlash dasturini ishlab chiqish; ikkinchidan, regulativ sandbox mexanizmini joriy etib, SupTech va RegTech yechimlarini nazorat qilingan sharoitda sinash imkoniyatini yaratish; uchinchidan, tijorat banklari bilan API orqali real vaqtda ma'lumot almashish standartlarini ishlab chiqish va barcha banklarga texnik ko'mak ko'rsatish; to'rtinchidan, ma'lumotlarni lokalizatsiyalash talablarini hisobga olgan holda lokal on-premise SI modellari va mahalliy ma'lumot markazlari infratuzilmasini rivojlantirish dasturini qabul qilish.

**Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. International Monetary Fund. Uzbekistan: Financial System Stability Assessment. IMF Country Report No. 25/227. - Washington, D.C.: IMF, 2025. - P. 145.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Sound Practices: Implications of Fintech Developments for Banks and Bank Supervisors. - Basel: BIS, 2018. - 50 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten. - Toshkent: MB, 2019-2025.
4. O'zbekiston Respublikasi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni. - 2019-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-martdagi PF-5953-son Farmoni "Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida".
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Raqamli O'zbekiston -2030" strategiyasi. - 2020-yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida".